FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA SHAHAR HOKIMINING QARORI

2022 - yil 11 - mart 111-11-169-Q/22 Farg‘ona shahar hokimligi

Farg‘ona shahar Bozor boshi ko‘chasida joylashgan kasb-hunar maktabi va imkoniyati cheklanganlar kasb-hunar maktablari oldiga sun’iy yo‘l notekisligi va piyodalar o‘tish joyi yo‘l belgisi o‘rnatish haqida

“Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” hamda 2015-yil 24-dekabrdagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 370-sonli qarori hamda Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2022-yil 03-fevral kungi 33/153-sonli xulosa xatini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5,6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limining 2022-yil 03-fevral kungi 33/153-sonli xulosa xati asos uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar, Bozor boshi ko‘chasida joylashgan kasb-hunar maktabi hamda Farg‘ona shahar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi o‘quvchilarining yo‘llarda yurishga qulayliklar yaratish maqsadida mazkur kasb-hunar maktablari oldiga 1.31. “sun’iy yo‘l notekisligi” va 5.16.1.-5.16.2. “Piyodalar o‘tish joyi” yo‘l belgilarini o‘rnatilishiga ruxsat berilsin.

3. Farg‘ona shahar Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (R.Dehqonov) yo‘l belgilarini o‘rnatilishini tashkil etish, transportlarni tartibli ravishda harakatlanishini hamda

yo‘l harakati qoidalariga amal qilinishi bo‘yicha zaruriy choralarni ko‘rib borish vazifalari yuklansin.

4. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin hamda veb-saytga joylashtirish choralari ko’rilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash shahar hokimining o‘rinbosari D.Omonov zimmasiga topshirilsin.

Farg'ona shahar hokimi **V.Nazarov**